

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023 yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **17,1** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **2,0** mingtaga ko'paygan yoki **11,9 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2023- yilning yanvar – iyunida **2,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,7 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023 - yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **17060** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2101** tani tashkil etdi


2023- yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **412** tani yoki jamiga nisbatan **21,7 %** ni tashkil etdi.

1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yil yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **11,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan **3,2** birlikka kupaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **23,0** birlik, Forish tumanida **14,2** birlik, Arnasoy tumanida **13,3** birlik, Yangiobod tumanida **13,9** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Jizzax shahrida 23,0-birlik
Forish tumani– 14,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Zarbdor tumani 10,2 birlik.
Mirzacho'l– 11,7 birlik.

Eng past ko'rsatkich

G'allaorol tumani-8,8 birlik
Baxmal tumani – 7,0 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **23,0** birlik, Forish tumani 14,2 birlik, Arnasoy tumanida **13,3** birlik, Mirzacho'l tumanida **11,7** birlik, Do'stlik tumanida **10,1** birlik, Paxtakor tumanida **10,4** birlik, Zarbdor tumanida **10,2** birlik kuzatildi.

2023- yil yanvar-iyunida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Jizzax shahri
23,0

Forish tumani
14,2

Arnasoy tumani
13,3

Mirzacho'l tumani
11,7

Do'stlik tumani
10,1

Paxtakor tumani
10,4

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- y.		2023- y.
578	Jizzax sh.	224
82	Arnasoy	55
200	Baxmal	47
270	G'allaorol	158
317	Sh.Rashidov	104
225	Do'stlik	23
223	Zomin	120
144	Zarbdor	77
78	Zafarobod	33
105	Mirzacho'l	40
122	Paxtakor	42
191	Forish	78
72	Yangiobod	30

2023- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Yangiobod	2,9
Zafarobod	3,3
Arnasoy	5,3
Mirzacho'l	3,9
Paxtakor	4,1
Do'stlik	2,2
Zarbdor	7,7
Baxmal	4,6
Forish	7,7
Zomin	11,7
G'allaorol	15,3
Sharof Rashidov	10,1
Jizzax sh.	19,6


2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – **19,6 %**, G'allaorol – **13,3 %**, Zomin – **11,7 %** Forish – **10,3 %**, Sh.Rashidov – **9,7 %** hissaloriga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma savdo sohasida **650** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **552** ta, sanoatda **398** ta hamda qurilishda **87** ta yangidan tashkil etilgan.


Tumanlar va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirma Jizzax shahrida **412** ta, G'allaorol tumanida **280** ta Zomin tumanida **245** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023 yillar davomida jami **11412** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**3579** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2760** ta, sanoat sohasida - **2327** ta, xizmatlar sohasida -**1931** ta, va qurilish sohasida - **815** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	533	32,6
Parrandachilik	260	15,9
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	88	5,3
Sabzavotlar etishtirish	314	19,2
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	441	27,0
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	514	49,0
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	131	12,5
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	188	17,9
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	63	6,0
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	154	14,5
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	206	35,8
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	191	33,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	120	20,9
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	27	4,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	31	5,4
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	444	17,8
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	627	25,0
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	192	7,7
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	958	38,3
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	282	11,3
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	589	45,1
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	213	16,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	246	18,8
Avtomobil transportida yuk tashish	101	7,7
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	157	12,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2503 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5 yilda tashkil etilgan korxonalarning **33,6 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-matr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yil yanvar-iyunida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,4 %**ni tashkil qilib, 2022 yilga nisbatan **2,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,9%** ni, yo'lovchi aylanmasida **98,2 %**ni, yo'lovchi tashishda **95,2 %**ni, yuk aylanmasi **98,2%** qurilishda **95,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **24,0 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Arnasoy, Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod tumanlari (**100,0 %**), Forish tumani (**94,6 %**), Paxtakor tumani (**60,9 %**), Sh. Rashidov tumani (**56,5 %**), va Zomin (**46,9 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4645,8** million so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **95,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**823,9** mln. So'm), Sh.Rashidov (**349,5** mln. So'm), Zomin (**125,9** mln. So'm), G'allaorol (**100,0** mln. so'm), Forish (**90,1** mln.so'm) hamda Paxtakor (**87,6** mln. So'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4645,8** million so'mni yoki jami investitsiya hajmining **73,6 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **69,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish (**2226,5** mln. so'm), Jizzax shahri (**610,1** mln. so'm), G'allaorol (**590,8** mln. so'm), Sh.Rashidov (**361,3** mln. so'm), Mirzacho'l (**243,9** mln. so'm), hamda Baxmal (**189,0** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi, mlrd. so'm ■ o'sish foizi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **8648,7** mln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **103,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Baxmal tumanida (**1205,3** mln. so'm), G'allaorol tumanida (**1130,0** mln. so'm), Sharof Rashidov tumanida (**1000,4** mln. so'm), Zomin tumanida (**965,6** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **717,9** mln. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **19,7 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **113,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mln. so'm

Jizzax sh.	1909,9
Arnasoy	171,9
Baxmal	1392,2
G'allaorol	731,4
Sharof Rashidov	1263,6
Do'stlik	258,4
Zomin	975,9
Zarbdor	229,4
Mirzacho'l	170,5
Zafarobod	224,3
Paxtakor	270,0
Forish	287,1
Yangiobod	73,8


2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (**283,7** mln. so'm), G'allaorol (**86,5** mln. so'm), Paxtakor (**59,6** mln. so'm), Forish va Baxmal (**54,7** mln. so'm), Sh.Rashidov (**52,5** mln. So'm)tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mln. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2628,4 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 57,6 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (677,8 mln. so'm), Sh.Rashidov (509,7 mln. so'm), G'allaorol (288,5 mln. so'm), Zomin (251,8 mln. so'm) va Baxmal (203,1 mln. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **34,8** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **38,4 %** ini tashkil etdi.


2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining



2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Arnasoy, Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor, Yangiobod, Baxmal tumanlarida – **100,0 %**, Forish tumanida – **85,1 %**, Zomin tumanida – **80,7 %**, eng past ko'rsatkich Zarbdor tumanida – **4,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2023 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **253,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **60,3** % ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Baxmal, Sharof Rashidov, Mirzacho'l, Paxtakor,, Forish , Yangiobod tumanlarida **100,0** % ni tashkil etdi.


Jizzax sh.	34,3
Yangiobod	17,3
Forish	16,5
Arnasoy	16,1
Mirzacho'l	14,7
Sh.Rashidov	14,6
Do'stlik	13,6
Paxtakor	12,8
Zarbdor	12,6
Zafarobod	12,2
G'allaorol	10,8
Zomin	10,6
Baxmal	8,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2023- yil yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil qildi.



Yuk
aylanmasida

2023- yil yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **137,8 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2023- yil yanvar-iyunida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2%** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-iyunida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **793** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **289 (36,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **485 (61,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **19 (2,4%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,4 % (328 ta)**, xizmatlar sohasida – **24,1 % (191 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,6 % (116 ta)**ni, sanoatda – **12,4 % (98 ta)**, qurilishda – **7,6 % (60 ta)**, ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (**258** ta), Sharof Rashidov tumanida (**125** ta), Forish tumanida (**70** ta), Zomin tumanida (**63** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **99** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **301** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **202** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **145** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **256** ta yoki **111** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni ulushi esa 2018- yilda **38** tani tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib **84** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **46** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022 yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilda **156** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **256** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **100** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2018- yilda **254** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **299** ta yoki **45** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2018- yilda **19** tani tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **49** tani tashkil etib, **30** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **29,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **35,4 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **6,4 %** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **51,5 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2022- yilda **55,4 %** yoki **0,9 %** birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **19,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **3,4 %** qolgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **56,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilga kelib esa **46,5 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **9,8 %** birlik kupaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **40,1 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022- yilda **50,1 %** yoki **10,0 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **3,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilga kelib, bu ko'rsatkich **3,4 %** yoki **0,2 %** birlikka kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **41,5** %ni, xizmatlar sohasida – **21,8** % ni, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **18,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **41,2** %ni, xizmatlar sohasida – **26,2** % ni, sanoatda – **13,6** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,1** % ni, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **31,6** % ni, sanoatda – **21,1** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	28,1	16,1	32,1
Band bo'lganlar soni	15,9	21,8	19,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,0	20,8	17,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	17,2	21,3	17,6
Raqobat muhiti	20,8	20,0	13,7

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	28,6	16,0	22,4
Band bo'lganlar soni	14,8	22,5	18,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,8	20,6	16,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	17,0	21,4	20,4
Raqobat muhiti	20,8	19,5	22,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli